

QO'RG'ONTEPA TUMANI SUV RESURSLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH KO'RSATKICHLARI

¹Mo`ydinjonova Mubinabonu Dilmurod qizi, ¹Sotvoldiyeva Inoyatxon Isomiddin qizi, ²Sarikulov Mirkomil Olimovich

¹Andijon davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabalari, ²Andijon davlat pedagogika instituti "Tabiiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi Andijon shahri Do'stlik ko'chasi 4-uy
Sarikulovmirkomil@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumani suv resurslaridan oqilona foydalanish va tumanda gidromelioratsiya ishlarini olib borilishi, tumandagi gidrotexnik inshootlar, soylar, kanallarning tuman xo'jaligidagi ahamiyati va suv sarfi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Qo'rg'ontepa, drenaj, Qorag'unon, Shahrixonsoy, gidrouzel, trassa, kollektor, savoy kanali, suv sarfi, zovurlar

Abstract: This article talks about the rational use of water resources of the Kurgantepa district of Andijan region and hydromelioration works in the district, the importance of hydrotechnical structures, streams, canals in the district economy and water consumption.

Key words: Korgontepa, drainage, Karagunon, Shahrikhansoy, hydrousele, highway, collector, Savoy kanal, water consumption, ditches

Asosiy qism: Qo'rg'ontepa tumani — Andijon viloyatining shimoliy-sharqida, Farg'ona va Oloy tizmalarining etak qismida joyshgan bo'lib, 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Shimoliy-g'arbdan Jalaquduq, janubi-g'arbdan Xo'jaobod tumanlari, sharqiy, janubi-sharqiy va shimoliy tarafdin Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 0,48 ming km². Yer yuzasi sharqdan (balandligi 1000 m gacha) g'arbga (500 m gacha) pasayib boruvchi tog' oldi qiya tekisligidan va Toshohur, Suzoq adirlaridan iborat. Iqlimi kontinental; yozi issiq, qishi nisbatan sovuq. O'rtacha harorat yanvar da -2° dan -3° gacha, iyulda +26+26,5°. Eng past harorat qishda -24°, eng yuqori xarorat yozda +41°. Yiliga 250-400 mm yog'in tushadi, asosiy qismi qish va bahor oylarida yog'adi. Vegetatsiya davri 220 kun. Tuman hududidan Qoradaryo va uning tarmoqlari Shahrixonsoy va Qorag'unon arig'i, janubiy chegarasidan Savay kanali oqib o'tadi. Respublikamizda suv resurslari cheklangan bo'lishiga qaramasdan, uni tejashga kam e'tibor berilayapti, natijada suvning ko'p qismi bekorga sarf bo'lmoqda. Deyarli barcha iste'molchilar doimiy ravishda me'yordan ko'p suv olishga harakat qiladilar. Bu esa ekin maydonlarida yer osti suvlari sathining ko'tarilishiga, yerlarning qayta sho'rlanishiga olib kelmoqda. O'z navbatida sho'rni yuvish uchun yana katta

miqdorda suv sarflanib, natijada sug'oriladigan yerlarda hosil bo'ladigan qaytarma suvlar miqdori ham ortmoqda. Shundan ko'rinib turibdiki, sug'orishda suvni tejashning katta imkoniyatlari mavjud. Bunga, avvalo, kanallar o'zanini betonlash, nov (lotok)lardan foydalanish yo'li bilan sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsientini oshirish, hamda sug'orishning ilg'or usullarini qo'llash bilangina erishish mumkin.

Shahrixonsoy - Kampirravot gidrouzelidan boshlanadi. 1887-yilda qurilgan bo'lib uzunligi 120 km ni tashkil etadi. Kanal suvi 8 ta yirik gidrouzellar orqali hududiy taqsimlanadi. Shahrixonsoy kanali sel, Oqbura va Aravon daryolaridagi toshqin hamda qishki tashlama suvlarni qabul qilishga xizmat qiladi, bu suvlar kanal orqali Asaka uzeligacha keladi. Trassaning 62 km da Shaxrixonsoy Aravonsoy daryosi bilan qo'shilib ketadi va shu yerdan (Nayman rostlagichigacha) daryoning qadimiy o'zanida oqadi. Janubiy Farg'ona kanali bilan birgalikda Andijon, Farg'ona viloyatlari va Qirg'izistonning O'sh viloyati (127,5 ming ga) yerlarini sug'oradi. Andijon viloyatida Katta Farg'ona kanali bilan kesishgan joyigacha 68 ming ga yer sugoriladi.



1-rasm. Shahrixonsoy soyining ko'rinishi.

Savoy kanali. Farg'ona vodiysidagi davlatlararo kanal. 1930-yil Savoy dashtini o'zlashtirish uchun Kampirravot gidrouzelidan Oqbo'ra daryosigacha qazilgan. 1932-1933 yillarda keyingi navbati qurilgan, uzunligi 53 km ga teng. Shundan 30 km dan ortiqrog'i Qirg'izistonning O'sh viloyati hududida, qolgan qismi Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani hududidan o'tadi. Kanalning boshlanish qismidagi suv sarfi 20 m³/sek ni tashkil etadi. Kanal jami 34 ta suv chiqarish qurilmalari (shundan 3 tasi Qirg'izistonda) bilan jihozlangan. Kanal 29 km da Oqbo'ra daryosini dyuker orqali kesib o'tadi. Savoy kanali suvi bilan Andijon

viloyatining Qo'rg'ontepa va Xo'jaobod tumanlarida 15,2 ming ga, O'sh viloyatida 3,7 ming ga yer sugoriladi. Kanalda sel suvlari uchun tashlamalar qurilgan.



2-rasm.Savoy kanali rekonstruksiyasi.

Qorag'unon arig'i – tumanning qishloq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega bo'lib u asosan ikkiga bo'linadi. Bular: Katta qorag'unon va Kichik qorag'unon ariqlaridir. Qorag'unon arig'ining uzunligi 20.1 km bo'lib, suv o'tkazish qobiliyati esa 24 m.kub. sekundni tashkil etadi. “Katta Qorag'unon” kollektorini 8,2 km qismini rekonstruksiya qilish “ Andijon maxsus suv pudrat” MChJ ga topshirildi. Bundan asosan ko'zlangan maqsad ariq va kollektor suv o'tkazish qobiliyati va suv sarfini tog'ri taqsimlash va qishloq xo'jaligida foydali samaradorligini oshirishdan iboratdir. Qorag'unon arig'I tumanning salkam 1,2 ga yerlarini sug'orishda foydalanilib 20,1 km da Qoradaryoga borib quyiladi.



**3-rasm. Katta Qorag'unon arig'i
Tumandagi ichimlik suv inshootlari ko'rsatkichlari:**

1-jadval.

Nomlanishi	Jami mavjud	Shundan 2012 yilda yangi qurilgan va ta'mirlangan	01.01.2023 yi holatiga ta'mirtalab	2023-yilda ta'mirlanishi rejalashtirilgan
Suv tarmog'i	620	63,7	145	60,3
Skvajinalar	102	16	2	17
Suv nasoslari	97	16	2	17
Suv minorasi	113	35	15	10
Suv taqsimlash inshooti	2	1	0	0
Inshootidagi nasoslar soni	97	8	2	17
Rezervuar	0	0	0	0
Nasos stansiyalari	0	0	0	0
Istemolchilar dagi mavjud suv o'lchagichlar	14533	5533		11150

Sug'orishga sarflangan suvlarni drenaj sistemasi orqali qaytishi aosan mavjud zovurlar orqali amalga oshadi. Tumanda jami 314 ta zovur mavjud bo'lib, ularning jami uzunligi 316,4 km ni tashkil etadi. Ushbu zovurlardan 2 tasi tumanlararo, 13 tasi xo'jaliklararo, 299 tasi esa SFU xisobidagi zovurlar xisoblanadi.

Tumanda mavjud zovurlar

2-jadval.

Nomlanishi	Soni	Uzunligi(km)
Jami zovurlar:	314	316.4
-magistral zovurlar		
-tumanlararo zovurlar	2	23
-xo'jaliklararo zovurlar	13	59.1

-SFU xisobidagi zovurlar	299	234.4
---------------------------------	-----	-------

Xulosa. Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, tumandagi mavjud suv resurslaridan foydalanishda bir qator kamchiliklar kuzatilmoqda. Jumladan, Shahrixonsoy, Savoy kanali va Qorag`unon ariqlari suvidan dexqon xo`jaliklari, fermer xo`jaliklari va tomorqalarni sug`orishda eski usuldagi sug`orish usullaridan foydalanish natijasida sug`orishga yo`naltirilgan suvlarning 50% dan ko`p qismi yer ostiga shimilish xolatlarini kuzatiladi. Yer ostiga shimilgan suvlarning aksariyat qismi grunt suvlari tarkibiga va qolgan qismi drenaj tizimi orqali mavjud zovurlarga qaytishi aniqlangan. Zovurlarga qaytgan suvlarning sug`orma dexqonchilikda foydalanish uchun yaroqsiz holatlarga kelayotganligini ko`rishimiz mumkin. Chunki ularning aksariyat qismi turli xildagi chiqindilarni tashlanishi natijasida yaroqsiz xolatga kelmoqda. Tumandagi suv resurslaridan maqsadli va samarali foydalanishni yo`lga qo`yish uchun yangi usuldagi sug`orish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo`rg`ontepa tumanining statistik axborotnomasi. 2023-yil ma`lumotlari.
2. O`zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Melnikova T.N. Praktikum po gidrologii, Uchebnik. Maykop – 2012 y.
4. Akbarov A.A., Nazaraliev D.V., Xikmatov F.X. «Gidrometriya» fanidan o`quv qo`llanma, TIMI, Toshkent, 2008y.
5. Karimov S.K., Akbarov A.A., Jonqobilov U. Gidrologiya, gidrometriya va oqim hajmini rostdash. Darslik. – T.: O`qituvchi, 2004y.
6. Rasulov A.R., Xikmatov F.X., D.P. Aytboev. Gidrologiya asoslari, «Universitet», Toshkent, 2003y.